

**Andijon viloyati Andijon shahrida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan  
tashabbusli byudjetlashtirish natijalari**

**MMT 82-guruh talabalari**

**Umarov Navro'zbek**

**Usmonaliyev Toliyor**

**To'raqulov Jahongir**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Andijon viloyati Andijon shahrida 2021-2023 yillarda tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar talil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

Jahon mamlakatlarida fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etishi shaffofik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Ulug'nor tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi jadvalda Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishiva sarflanishini ko'rdik. 2021-yil tashabbuslarni moliyalastirish uchun 1.5 milliard so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qarib 18 milliard so'm va 2023-yil 33.37millard so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

**1-jadval**

**Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli byudjetlashtirish uchun  
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori <sup>1</sup>**

(ming so'mda)

---

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

| T/r  | Ko'rsatkich nomi  | 2021-yil  | 2022-yil     | 2023-yil     |
|------|---|-----------|--------------|--------------|
| 1.   | Yil boshiga qoldiq  | 0         | 101 690      | 971.1        |
| 2.   | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar             | 1 500 000 | 17 968 309.7 | 33 373 978.2 |
| 3.   | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1 336 000 | 18 070 000   | 32 173 000   |
| 3.1. | <i>Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i>              | 1 318 815 | 12 515 839.4 | 20 392 913   |
| 3.2. | <i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>   | 0         | 0            | 11 780 087   |
| 4.   | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'                                     | 181 185   | 5 554 160.3  | 1 201 949.3  |

Yuqoridagi (1-jadvalda) jadvalda Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli budjetlashtirish uchun 2021-yil xolatiga Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan pul mablag'lari 1.5 milliard so'mni tashkil etgan va keying yillarda bu miqdor sezilarli darajada o'sganligini ko'rish mumkun. 2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 1 336 000 ming so'm, pudratchilarga to'lab berilgan mablag'lar 1 318 815 ming so'm va qoldiq 181 185 ming so'mni tashkil etgan. To'lab berilishi kerak bo'lgan 17 185 ming so'm mablag'lar kelasi yil to'lanishi rejalashgan va 2022-yil boshiga qoldiq 101 690 ming so'mni tashkil etgan. 2022-yil 2021 yilga nisbatan deyarli 12 baravar ko'p mablag' ajratilgan 2023-yil esa 2022 yildan qarib 2 baravar ko'p mablag' ajratilgan. Andijon shahrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ning ahamiyati yildan yilga jadal oshib bormoqda.

Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar soni, tadbir yo'nalishlari, yo'naltirilgan mablag'lari ko'rildi. Shu orqali shu vaqtgacha muammoli sohalarning birinchi navbatda qaysi biri o'z yechimini topishi aholi turmush darajasida ko'proq ahamiyatli ekanligini va ularning miqdori qanchaligi o'rganildi.

## 2-jadval

### Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli budjetlashtirish natijasida

**amalga oshirilgan tadbirlar<sup>2</sup>**

| T/r         | Tadbirlar nomi  | Moliyalashtirilgan takliflar soni |           |           | Sarflangan mablag' (ming so'mda) |                     |                   |
|-------------|---|-----------------------------------|-----------|-----------|----------------------------------|---------------------|-------------------|
|             |   | 2021-yil                          | 2022-yil  | 2023-yil  | 2021-yil                         | 2022-yil            | 2023-yil          |
| <b>Jami</b> |   | <b>5</b>                          | <b>31</b> | <b>29</b> | <b>1 318 815</b>                 | <b>12 515 839.4</b> | <b>20 392 913</b> |
| 1.          | Hududiy ichki yo'llar   | 2                                 | 8         |           | 316 113                          | 2 723 981,1         |                   |
| 2.          | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash                           | 1                                 | 12        | 17        | 475 002                          | 4 526 290           | 12 760 826        |
| 3.          | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash                 |                                   | 4         | 2         |                                  | 2 397 537           | 2 275 175         |
| 4.          | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash                  |                                   |           | 3         |                                  |                     | 1 596 143         |
| 5.          | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash               |                                   | 2         | 5         |                                  | 1 464 791,8         | 2 740 302         |
| 6.          | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash                                      | 1                                 |           |           | 140 000                          |                     |                   |
| 7.          | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari                                  |                                   | 2         |           |                                  | 366 653,5           |                   |
| 8.          | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) |                                   | 3         |           |                                  | 1 036 586           |                   |
| 9.          | Boshqa tadbirlar  | 1                                 |           | 2         | 387 700                          |                     | 1 020 467         |

2021-yil ichida hududiy ichki yo'llar yetakchilik qilgan. Bular 2 ta loyiha va jami loyihalarning 40%ini tashkil qilgan, ajratilgan mablag'lar esa 475 002 ming so'm va 2021-yil Andijon shahar tashabbusli budjetidan sarflangan mablag'larning 36%ini tashkil qilgan. 2022-yilda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

jihozlash yetakchilik qilgan. G'olib loyihalar soni 12 va jami loyihalarning 41%ini tashkil qilgan, pudradchilarga to'langan mablag'lar esa 4 526 290 ming so'mni tashkil etgan. 2022-yil Andijon shahar tashabbusli budjetidan sarflangan mablag'larning 36%ini tashkil qilgan. 2023-yilda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash yetakchilik qilgan. G'olib loyihalar soni 17 va jami loyihalarning 58.6%ini tashkil qilgan, pudradchilarga to'langan mablag'lar esa 12 760 826 ming so'mni tashkil etgan. 2023-yil Andijon shahar tashabbusli budjetidan sarflangan mablag'larning 63%ini tashkil qilgan.

**3-jadval**

**Andijon viloyati Andijon shahar Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari<sup>3</sup>**

(ming so'mda)

| <b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>                         |  | <b>2021-yil</b>  | <b>2022-yil</b>     | <b>2023-yil</b>    |
|--|--|------------------|---------------------|--------------------|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar |  |                  | 14 812 753          | 21 103 354         |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari                                  |  |                  |                     |                    |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar              |  | 1 500 000        | 3 155 559,7         | 12 270 624         |
| Shu jumladan   | Erkin qoldiq mablag'lari   |                  | 910 000             | 12 270 624         |
|  | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi |                  | 2 245 419,7         |                    |
|  | Iqtisod qilingan mablag'lar  |                  |                     |                    |
| Qo'shimcha ajratilgan  | PQ-5250ga asosan   |                  |                     |                    |
|  | PQ-409ga asosan  |                  |                     |                    |
|  | PQ-117ga asosan  |                  |                     |                    |
| <b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>   |  | <b>1 500 000</b> | <b>17 968 309,7</b> | <b>33 373978,2</b> |

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Yuqoridagi 3-jadvalga ko'ra quyidagilar tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo'naltiriladi: tuman (shahar)lar budjetlarining tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida 5 foizi; tuman (shahar) budjetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi; tuman (shahar) budjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar; vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko'zda tutilgan mablag'lar.

Andijon shahar mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 2021-yilda mablag'lar mavjud emas. 2022-yil bo'yicha 14 812 753 ming so'mni, 2023-yilda 21 103 354 ming so'mni tashkil qildi. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'larni tahlil qiladigan bo'sak 2021- yilda 1 500 000 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 –yilda 3 155 559,7 ming so'mni, 2023-yilda 12 270 624 ming so'mni tashkil etgan.

#### 4-jadval

#### Andijon viloyati Andijon shahar tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>

| T/r               | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)                                    | Jami to'plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'mda) |
|-------------------|---|-----------------------------|---|
| <b>2021-yilda</b> |   |                             |   |
| 1.                | Taxtak o'prik MFY Murabbiylar ko'chasi 26-uy issiqlik tizimini yaratish | 656                         | 387 700   |
| 2.                | O'zbekim MFY Sulton Jo'ra ko'chasi ichimlik suvi ta'minoti              | 32                          | 140 000   |
| 3.                | Jumabozor MFY Damariq ko'chasi asfialtlash                              | 173                         | 126 200   |
| 4.                | Sog'lom avlod MFY 2-kichik daha asfialtlash                             | 4                           | 189 913   |

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## *Modern education and development*

|                   |   |        |            |
|-------------------|---|--------|------------|
| 5.                | Ishchilar MFY 7-umumta'lim maktabida yangi zamonaviy stadion qurish                                       | 453    | 475 002    |
| <b>2022-yilda</b> |   |        |            |
| 1.                | 22-maktabga suniy qoplamali mini stadion  | 823    | 500 000    |
| 2.                | 1-umumta'lim maktabda isitish tizimi va qozon o'rnatish   | 716    | 600 000    |
| 3.                | Sadoqat MFY Mazuna ko'chasini asfaltlash  | 604    | 450 000    |
| 4.                | Bobur shox ko'chasida fondan qurish   | 512    | 260 000    |
| 5.                | Chulpon shox ko'chasida tungi yoritish ishlari  | 300    | 245 000    |
| 6.                | Dukchi Eshon ko'chasi 24-DMTTni joriy ta'mirlash  | 2 845  | 1 110 000  |
| 7.                | 31-maktab oynalari ish holatidan chiqqanligi va qurulganidan buyon almashtirilmaganligi bois almashtirish | 2 745  | 600 000    |
| 8.                | Andijon shahar Temir yo'l 23 kuchasidagi 66-DMTTni joriy ta'mirlash                                       | 2 245  | 930 000    |
| 9.                | Andijon shahar Kengash MFY Maktab ko'cha 2-uyda joylashgan 34-DMTTni joriy ta'mirlash                     | 2 236  | 1 050 000  |
| 10.               | Andijon shahar Maorif MFY 24-umumta'lim maktabini joriy ta'mirlash  | 2 134  | 1 200 000  |
| 11.               | Boshqa loyialar   | 16 111 | 11 125 000 |
| <b>2023-yilda</b> |   |        |            |
| 1.                | Andijon ixtisoslashgan san'at maktabini joriy ta'mirlash  | 3 820  | 1 200 000  |
| 2.                | Andijon shahar 27-maktabining eshik va romlarini yangi qo'yish zarur                                      | 3 811  | 1 200 000  |
| 3.                | Andijon sh. 9-maktabga zamonaviy xona va o'quv qurollari ovozli kamera o'rnatish zarur                    | 3 617  | 1 200 000  |

|     |   |        |            |
|-----|---|--------|------------|
| 4.  | 24-maktabga 15 ta yuqori va 8 ta boshlang'ichga 18 elektron doska zamonaviy shaxmat stollari musiqa anjomlari | 3 478  | 950 000    |
| 5.  | 32- maktabni kapital ta'mirlash   | 3 468  | 1 200 000  |
| 6.  | Andijon viloyat qon quyis stansiyasini mukammal ta'mirlash ishlari  | 2 315  | 1 200 000  |
| 7.  | Andijon shaharidagi Yoshlar markazi binosini ta'mirlas va moddiy texnik bazasini rivojlantirish               | 2 244  | 600 000    |
| 8.  | 41-umumta'lim maktabida usti yopiq to'rt faslga mo'ljallangan futbol sport maydonini qurish                   | 2 017  | 980 000    |
| 9.  | 31-umumta'lim maktabini moddiy texnik baza bilan jiozlash   | 5 275  | 1 200 000  |
| 10. | Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute akademik litseyiga yozgi sport arenasi qurish       | 3 425  | 600 000    |
| 11. | Boshqa loyihalar  | 59 383 | 21 843 000 |

Yuqoridagi 4-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, 2021 yilda 5 ta loyiha amalga oshirilgan. Taxtako'prik MFY Murabbiylar ko'chasi 26-uy issiqlik tizimini yaratish loyihasi eng ko'p 656 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan. Sog'lom avlod MFY 2-kichik daha asfaltlash 4 ta ovoz bilan g'olib loyihalar ichida eng kam ovoz to'plagan. 2022-yilda jami 31 ta loyiha g'olib deb topilgan. Dukchi Eshon ko'chasi 24-DMTTni joriy ta'mirlash 2845 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan va 1 110 million so'm mablag' ajratilgan. Andijon davlat tibbiyot instituti Stomatologiya fakulteti 3D rentgen uskunasi olish uchun 238 ta ovoz bilan g'olib loyihalar ichida eng kam ovoz to'plagan va 1 milliard so'm ajratilgan. 2023 yilda jami 29 ta loyiha g'olib deb topilgan. Ulardan 31-umumta'lim maktabini moddiy texnik baza bilan jiozlash 5275 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan va 1.2 milliard so'm ajratilgan. G'olib loyihalar ichida 2017 ta ovoz bilan 41-umumta'lim maktabida usti yopiq to'rt faslga mo'ljallangan futbol sport maydonini qurish eng kam ovoz to'plagan va 980 million so'm mablag' ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish

uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo 'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи қўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023



22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ.2018. 1/6 сон